

AFAZIYADA SPONTAN NUTQNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Ne'matova Surayyo,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi

nsurayyo1812@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada afaziyaga uchragan bemorlar spontan nutqining o'ziga xos xususiyatlari eksperimental tadqiqot asosida o'rganilgan. Tadqiqot doirasida afaziya bilan og'rigan bemorlarning erkin nutq jarayoni nutqiy nuqsoni bo'lmagan sog'lom insonlar (nazorat guruhi) nutqi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Taqqoslash asosan nutq tezligi va ma'lum vaqt oralig'ida aytilgan gaplar soni kabi miqdoriy ko'rsatkichlar asosida olib borildi. Tajriba natijalari afaziyaning nutq dinamikasiga, jumladan, uning sekinlashishiga va tarkibiy qisqarishiga ko'rsatadigan ta'sirini va o'ziga xos farqlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: afaziya, spontan nutq, nutq tezligi, gaplar soni, qiyosiy tahlil, neyrolingvistika, eksperimental tadqiqot.

Аннотация. В данной статье на основе экспериментального исследования изучаются особенности спонтанной речи пациентов с афазией. В ходе исследования был проведен сравнительный анализ процесса свободной речи больных афазией с речью здоровых людей (контрольная группа), не имеющих речевых нарушений. Сравнение проводилось преимущественно по таким количественным показателям, как темп (скорость) речи и количество предложений, произнесенных за определенный промежуток времени. Результаты эксперимента позволяют выявить влияние афазии на динамику речи, в частности на её замедление и структурное сокращение, а также определить специфические различия.

Ключевые слова: афазия, спонтанная речь, темп речи, количество предложений, сравнительный анализ, нейролингвистика, экспериментальное исследование.

Abstract. This article examines the specific characteristics of spontaneous speech in patients with aphasia based on an experimental study. Within the framework of the research, a comparative analysis was conducted between the free speech process of aphasic patients and that of healthy individuals (control group) without speech impairments. The comparison was primarily based on quantitative indicators such as speech rate (speed) and the number of sentences produced within a specific timeframe. The experimental results serve to identify the impact of aphasia on speech dynamics, including its deceleration and structural reduction, as well as to determine specific differences.

Keywords: aphasia, spontaneous speech, speech rate, number of sentences, comparative analysis, neurolinguistics, experimental study.

Kirish. O'zbek tilshunoslarining neyrolingvistikaga qo'l urushlari ko'proq vaqt talab qildi. Shunday bo'lsada bu soha e'tiborsiz qolmadi. Shu sohaga oid bir qator ilmiy ishlar e'lon qilindi[1:44]. Iroda Azimovanning "O'zbek tilidagi agrammatik spontan nutqda fe'llarning ifodalanishi", "O'zbekcha agrammatik spontan nutqda bog'lama va fe'l funksional shakllarining ifodalanishi"[2:103] va "O'zbek tilidagi agrammatik spontan nutqda gaplarning qo'llanishi"[3:93] alohida ahamiyatga ega. Unda bemorlar va sog'lom insonlar nutqi o'zaro solishtirib turli xil aspektlarda tahlil qilinadi. Umuman olganda afazik nutqda eng yaqool ko'zga ko'rinadigan jihat bu gap konstruksiyaridir. Unda gaplar asosan soda va qisqa boladi. Gaplar ha yoki yo'q tarzida yoki savollarga qisqa javob berish bilan yakunlanadi.

Adabiyotlar sharhi. Afaziyada spontan nutq masalasi neyrolingvistika va psixolingvistika doirasida keng tadqiq qilingan bo'lib, unda nutqning grammatik, semantik

va fonetik buzilishlari tahlil etiladi. Tadqiqotlarda afaziyaga uchragan bemorlarda spontan nutqning sekinlashuvi, pauzalarning ko'payishi hamda leksik birliklarni tanlashdagi qiyinchiliklar asosiy belgi sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, spontan nutqni o'rganish orqali afaziyaning turi va darajasini aniqlash muhim ilmiy mezon sifatida baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy hamda psixolingvistik tahlil metodlaridan foydalaniladi. Afaziyaga ega respondentlarning spontan nutqi audio yozuvlar asosida kuzatilib, ularning leksik, grammatik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Olingan natijalar sog'lom nutq namunalari bilan qiyoslanib, afaziyadagi nutq buzilishlarining o'ziga xos jihatlari aniqlanadi.

Natijalar va muhokama. Tajriba suhbat metodiga asoslangan bo'lib, bunda ishtirokchilarga yoshlariga mos savollar bilan murojaat qilindi. Har bir tajriba ishtirokchisi nutqi audio ko'rinishida yozib olinib, so'ng yozma matn holatiga keltirildi. Ishtirokchilarimiz 6 nafar ishemik insult bilan kasallangan va motor afaziya elementlari kuzatilgan bemorlar va 8 ta sog'lom inson. Bemorlar turli yoshlardagi va turli sohalardagi insonlar bo'lib, sog'lom insonlarni tanlayotganimizda ular bilan jins, yosh va kasbi jihatdan o'zaro yaqin bo'lishiga harakat qilindi.

Ishtirokchi nomi	Jinsi	Necha yil avval insult bo'lgan	Tajriba vaqtidagi yoshi	Qo'l	Kasbi	Ma'lumoti
A1	erkak	10	68	O'ng	revizor	oliy
A2	erkak	7 oy	48	O'ng	shofyor	o'rta maxsus
A3	ayol	5		O'ng	Uy bekasi	o'rta maxsus
A4	ayol	1 hafta	56	O'ng	Turli kasblarda ishlagan: uborshitsa, buxgalter, bog'cha opa, upakovkachi	o'rta maxsus
A5	ayol	6	60	O'ng	tikuvchi	o'rta maxsus
A6	erkak	2	62	O'ng	pirarab	o'rta maxsus

Tajriba suhbat shaklida olib borilganligi uchun ularga quyidagi savollar orqali murojaat qilindi:

1. Ismingiz nima, qayerdانسiz?
2. Oilangiz haqida gapirib bering.
3. Qaysi sohada ishlaysiz (gansiz/moqchisiz).
4. Oxirgi borgan to'yingiz haqida gapirib bering.
5. Shunday ob-havo sizga yoqadimi?
6. Choy yoki kofe? Qaysi birini yoqtirasiz?
7. Kim bilan birga kelgansiz? Sizga qanday qarashyapti?
8. Qayeriz bezovta qiladi?
9. Kasallik qachon boshlangan edi?
10. Vrachingiz kim, qanday ekan?

Savollar nutq vaziyatidan kelib chiqib, bemorning qiziqishi va kayfiyatiga qarab o'zgarib, kengayib bordi. Sog'lom odamlar uchun esa 7 dan to 10 gacha bo'lgan savollarda boshqa kasalliklar haqida suhbatlashishga harakat qilingan. Biz savollarning soda va qisqa qildik, chunki bemorlar uchun shuning o'zi ham ancha qiyin jarayon bo'lib, ayrimlarining charchab qolgani ham kuzatildi. Bu esa ishemik insult bilan kasallanganlar uchun tabiiy jarayondir.

Bemorlar nutqining tahlil natijalari				
o	FISh	so'zlar soni	gaplar soni	nutq tezligi
	A1	201	59	32,4
	A2	93	40	21,2
	A3	201	48	40
	A4	201	45	40,3
	A5	75	32	23
	A6	201	135	17,2

Sog'lom insonlar nutqining tahlili				
o	FISh	so'zlar soni	gaplar soni	nutq tezligi
	B7	201	36	47,7
	B8	203	33	56,3
	B9	212	30	52
0	B10	216	27	42,8
1	B11	201	32	50,2
2	B12	203	40	31,6
3	B13	204	19	40,8
4	B14	223	25	52,5

Xulosa. Afazik bemorlar nutqida gaplar soni sog'lom ishtirokchilarga nisbatan 2 barobar ko'p. sababi bemorlar qisqa va to'liqsiz soda gaplardan foydalanishadi. Garchi tahlil uchun ajratib olingan matnda so'zlar soni teng bo'lsada. Nutq tezligi jihatdan ham bemorlar sekin gapirishi va pauzalar bilan gapirishini hisobiga normal nutqdan 0.75% orqada.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimova I. (2013) Afazia tilshunoslikning o'rganish objekti sifatida. Ilm sarchashmalari (in Uzbek). (Aphasia as an object of linguistics. Source of Science) 11, 40-44.
2. Azimova I. (2015) O'zbekcha agrammatik spontan nutqda bog'lama va funksional fe'l shakllarining ifodalanishi. Lingvist (ilmiy maqolalar to'plami) VI (in Uzbek). (Copula and non-finite verb forms in Uzbek agrammatic speech. Linguist (collected papers) VI). P. 97-103
3. Азимова Ирода –Ўзбек тилидаги аграмматик спонтан нутқда гапларнинг қўлланиши .Ўзбек тили ва адабиёти. 2019 №5. 94-98.